

## BOLALAR MUSIQA MAKTABLARINING YUQORI SINFLARIDA SKRIPKA SHTRIXLARINI O'RGANILISHI

Muxamedov Feruz To'lqinjonovich

Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti magistranti

### ANNOTATSIYA

Maqolada Skripka ta'limi jarayonida bolalar musiqa va san'at maktablarining yuqori sinflarida skripka shtrixlarining o'rganilishi, uning turlari, mazmuni va metodlarini o'rgatish to'g'risida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy salohiyat, axloq, odob, nafosat, mehr-oqibat, vatanparvarlik.

“O'rganishga bo'lgan ishtiyoqni rivojlantir. Agar shunday qilsang, sen hech qachon o'sishdan to'xtamaysan”!

**Entoni J.D'Anjelo.**

2020-yil 20-noyabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Bunda davlatimiz rahbari «O'qituvchi va murabbiylar kuni» bayrami munosabati bilan soha vakillariga yo'llagan tabrik nutqida ta'kidlaganidek-taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Shuning uchun ham, O'zbekistonda ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag'lar yo'naltirilmoqda. Maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda.

– “Biz ustozni otaday ulug' deb bilgan, doimo ardoqlagan ma'rifatparvar xalqning vakillarimiz. Men ham o'qituvchi, muallim deganda o'zim uchun eng aziz va hurmatli bo'lgan, ziyoli va zamonaviy, samimiy va mehribon insonlarni tasavvur qilaman. Chunki hammamizga ham shu muallim saboq va ta'lim berib, mehribon ota-onalarimiz qatorida tarbiyalagan” – dedi davlat rahbari yig'ilish avvalida.

– Bugungi kunda O'zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin ko'makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyorillardir. Har bir oila, har bir bola hayoti maktab bilan bog'langani, bu masala davlatning, jamiyatning eng muhim ishi ekani ta'kidlandi.

– Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Dunyodagi zamonaliviy o‘quv dasturlari, o‘qitish metodikalarini o‘rganib, yurtimiz umumta’lim maktablarida joriy qilish muhimligi ta’kidlandi. Xalq ta’limi vazirligiga ushbu tajriba asosida Milliy o‘quv dasturini ishlab chiqib, 2021/2022 o‘quv yildan boshlab ta’lim jarayoniga sinov tariqasida tatbiq etish vazifasi qo‘yildi. Yangi metodikani samarali yo‘lga qo‘yish uchun barcha maktab o‘qituvchilar videoaloqa orqali xorijiy mutaxassislar ishtirokida o‘qitilishi belgilandi. Eng muhimi, bu jarayonlarga pedagogika yo‘nalishidagi universitet va institutlar ham jalb qilinib, pedagog kadrlar tayyorlash metodikasi ham yangilanadi.

27-iyun kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev Namangan viloyati faollari bilan o‘tkazgan yig‘ilishida shunday dedi:-“O‘zbekistonda bundan buyon umumiyl o‘rta ta’lim maktabini bitirayotgan barcha o‘quvchilar biror musiqa asbobini chalishni bilishi kerak va bu ularning shahodatnomasida qayd etiladi”. Davlat rahbarining fikricha, ashula eshitib bajarilgan ishda 10 baravar baraka bo‘ladi. Davlat rahbari so‘zida davom etarkan, mazkur yangi tajribani qo‘llashning sabablariga to‘xtaladi: “Bu nima uchun kerak? Iqtisodiyotni tiklaymiz, lekin shuning barobarida madaniyatimizni tiklab bormasak, ertaga ma’naviy ozuqa bo‘lmagan elda, xalqda, yoshda yutuq bo‘lmaydi”. Albatta bunday madaniyat sohasiga va musiqa sohalariga berilayotgan e’tibor hamda imkoniyatlar hozirgi zamon yoshlari va kelajak avlod uchun keng eshiklarni ochib beradi. Har bir o‘sib kelayotgan yosh avlod o‘zi istagan yo‘nalishda ta’lim va tarbiya olib kelajak poydevorini barpo etadi. Hozirda har bir viloyatimizda juda ham ko‘plab musiqa va san’at maktablari faoliyat olib bormoqada. Farzandlarimiz o‘zları istagan milliy va yevropa musiqa asboblari bo‘yicha ilm olib, o‘z mahoratlarini jahon miqiyosida namoyon etib kelmoqdalar. Bolalarda yoshlikdan musiqa va musiqa asbollariga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish bir qator inson organizmi sog‘ligi uchun foydali amallarni bajaradi: baxtlilik hissini orttiradi; sportda yugurish samaradorligini oshiradi; stressni kamaytiradi; uslashni osonlashtiradi; depressiyani kamaytiradi; taomlardan tiyilishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi; kayfiyatni ko‘taradi; xotirani kuchaytiradi; og‘ir ruhiy bosimdan oldin tinchlanib olishga yordam beradi; tanadagi og‘riqlarni kamaytiradi. Bolalarda yoshlikdan musiqa va musiqa asbollariga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish jarayonida musiqa maktablarida o‘rgatiladigan Yevropa musiqa asbollaridan Skripka asbobini misol qilib olishimiz mumkin. Skripka asbobini ham o‘ziga xos tovush temperamentti va yoqimli ohangi mavjud. Skripka (slavyancha skri — g‘ijirlamoq) ma’nosini ham beradi. Skripka torli kamonli musiqa cholq‘u asbobi hisoblanadi. Skripkasimon cholq‘u asbollariga skripka, alt, violonchel, kontrabas baland registrli sozlar hisoblanadi. Skripkaning to‘rt ta tori kvinta intervali bo‘yicha sozlanadi. Diapazoni to‘rt oktavadan yuqori Umumiy uzunligi — 600 mm ni

tashkil etadi. Skripkaning klassik shakli 15 —16-asrlarda Italiya va Fransiyada yuzaga kelgan. 17—18-asrlarda Shimoliy Italya, ayniqsa, Kremona ustalari A. va N. Amati, J. Gvarneri, A. Stradivari va boshqalar skripkaning mukammal namunalarini yaratishgan. Skripkalar simfonik orkestr va cholgu ansamblar asosini tashkil qiladi. 17—18-asrlardan skripkada yakkavozlik san'ati rivojlanib kelmoqda, skripka musiqasi yaratilmoxda. Bu sohada 19-asrda virtuoz skripkachi va mashhur kompozitorlar N.Paganini P.Sarasate va boshqalarning xizmati katta bo'ldi. O'zbekistonda M. Reyson, N.Pover, V.Yudenich va boshqa skripkachilar tanilgan. Hozirda yosh avlod ijrochilaridan D.Xoliqov, N.Hoshimov, T.Yaxshiboyev va boshqalar xalqaro tanlovlarda g'alabalarga erishganlar.

Skripka asbobini qoyilmaqom ijro etish uchun, avvalo shtrix texnikasining mohir egasi bo'lish lozim. Bunda o'rganiladigan hamda chaladigan asarlarimizda turli xil shtrixlar, aplekatsiyalarga duch kelamiz. O'quvchilarimizga bu shtrixlarni o'zlashtirishlari oson bo'lishi uchun ularga kerakli maslahatlarimizni berib o'tamiz. Bolalar musiqa va san'at maktablarining yuqori sinflarida hamda asarlar davomida, ijroda ishlatilib kelinadigan shtrixlardan biri bu-MARTELE. U fransuz tilidan olinganbo'lib, so'zma-so'z tarjima qilganda "bolg'a qoqmoq" ma'nosini anglatadi. Musiqada esa ushbu shtrix ijrosi haqida gap ketganda kuchli uzuq-uzuq, qisqa-qisqa chalish uslubi tushuniladi. Ushbu shtrixning vazifasi kuydag'i qahramonlik, jahldorlik kabi kayfiyatlarni shuningdek, yengil raqs, marsh xarakteridagi ritmlarni ifodalashda ishlatiladi.



Ushbu shtrix ijrosini yaxshilashda Kreytserning etyud №1 va Dontaning etyud №16 op.32 kabi asarlardan foydalanish maslahat beriladi. O'zlashtirish davomida shtrixning to'g'ri bajarilayotganiga (qo'l va kamonning harakati, uzuqlar orasidagi ritmning aniqligiga) alohida e'tibor berish lozim.

BIOTTI o'zida Detache belgilarini va kuchli urg'u berilgan Marteleni birlashtirgan shtrixdir. Ushbu shtrix odatda qahramonlik xarakterini rivojlantirishda ishlatiladi.

PUNKTIR SHTRIXLARI – skripka ijodida eng ko'p qo'llaniladigan shtrixlardan biri bo'lib, ifodalovchi kuchi nihoyatda biydir. Ushbu shtrixlar yordamida qahramonlik

marshlari xarakteri va obrazini (Ernst – “Otello” asarida), yorqin parvoz (Paganini – Konsert №1, uchinchi qism asosiy mavzu), nafis raqs xarakterlarini (Venyavskiy – Konsert №1, uchinchi qism asosiy mavzu) ifodalash mumkin.

Yuqorida ko‘rsatilganidek, punktir shtrixlarining kamonning turli harakatlari bilan chalsa bo‘ladi. Odadta ularni birlashtirib ishlatalish ijroning yana sifatli chiqishiga sabab boladi.

SON FILE (ushlangan tovush) – muhim ifodaviy vosita bo‘lib, cholg‘u tovushuni inson ovoziga yaqinlashtiradi.



Ushbu shtrix yordamida turli xil psixologik- hissiyotlarni ifodalash mumkin. Bunda sokinlikdan patetik-g‘azabgacha(Paganini – Konsert №1, ikkinchi qism yakunida) bo‘lgan his tuyg‘ular ifodalansa, crescendo bilan diminuendo almashinuvi orqali ifodalangan bo‘laklarda esa sirlilikdan yovuzlikkacha (Shostakovich – Konsert №2, ikkinchi qism kondensiyasida), fojiali qahrdan sokin vidolikkacha (Bax – Adajio g-moll, yakuni) kabi emotSIONAL xarakterlarni o‘zida aks ettira oladi.

O‘quvchi har bir shtrix ustida ish olib borilayotganida qo‘llar harakatiga va tovushga alohida e’tiborli bo‘lishi talab etiladi. Shtrix bajarilishidan oldin ijrochining o‘ng qo‘li ekrin holatda bo‘lishi kerak hamda keyingi harakatlarga tayyor turishi zarur. Agarda harakatlar to‘g‘ri bajarilsa, bu holatda ijrochiga o‘z mahoratini ko‘rsata olishiga yordam beradi. Bundan tashqari, har bir o‘quvchi ijro jarayonida katta-kichik pyessa bo‘lishidan qatiy nazar, doimiy ravishda sinfda ham uyda ham o‘zida artistizmni shakkantirib bormog‘i zarur. Bunda sahma madaniyatini o‘rni juda muhim hisoblanadi. Barcha e’tiborni asarga qaratib, undagi xarakterdan kelib chiqqan holda ortiqcha harakatlarsiz chalishga erishish lozim. Shundagina ijro etilayotgan kuy professional darajada eshituvchiga yetib boradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Rauf Qodirov. “Musiqa pedagogikasi” Toshkent. 2015
2. Rauf Qodirov. “Musiqa psixologiyasi” Toshkent. 2015
3. Rauf Qodirov. “Ommabop musiqiy glossariy” Toshkent. 2014
4. Berlyanchik M.M. “Вопросы музыкальной педагогики”. Москва. 1997
5. Grigoryan L. “Школа игры на скрипке”. Москва.1989
6. Internet ma’lumotlari Wikipedia.com
7. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi 2000- 2005
8. <https://www.sbtue.uz/uz/news/view/324>

- 9.** Educational Process Legislation and Principles and their Use in Student Practice. Tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari va prinsiplari hamda ulardan talabalar amaliyotida foydalanish International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 04, 2020 ISSN: 1475-7192 6485-6492 betlar Sh.U.Norova,T.Dj.Muxamedov
- 10.** Sposobi' napravleniya studentov na informatsionnye texnologii Bosma VESTNIK NAUKI I OBRAZOVANIYA 2020. № 21 (99).Chast 2 Moskva 2020 ISSN 2541-7851 (setevoye izdaniye) <https://cyberleninka.ru/article/n/sposoby-napravleniya-studentov-na-informatsionnye-tehnologii> Muxamedov Tulkin Djurayevich
- 11.** Sharq xalqlari san'ati tarixi, musiqa merosi va maqom ijrochiligi haqida «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 //// \\\ Volume: 1, ISSUE: 6 <https://cyberleninka.ru/article/n/sharq-xalqlari-san-ati-tarixi-musiqa-merosi-va-maqom-ijrochiligi-haqida> Tulkinjon Djurayevich Muxamedov
- 12.** Sposoby i sredstva razvitiya muzyskalnyx sposobnostey uchashchixsy na urokax muzyski. Проблемы науки, (2021).43.  
<https://cyberleninka.ru/article/n/sposoby-i-sredstva-razvitiya-muzykalnyh-sposobnostey-uchaschihsya-na-urokah-muzyki> Muxamedov T. D.
- 13.** Issues of theory and methods of the conductor executive arts European Scholar Journal (ESJ) Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No. 9, SEPTEMBER 2021, ISSN: 2660-5562 Muhammedov To'lqinjon Jo'rayevich
- 14.** Factors of Social Activity of Students of Higher Educational Institutions Oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarni ijtimoiy faolligini tarbiyalashning omillari European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE)Volume 2 | Issue 6 | ISSN: 2795-8612 Tulkinjon Juraevich Mukhamedov
- 15.** Oliy ta'lim sohasida Xor-dirijorligi mahoratini oshirish texnologiyalari Special issue | 2022 “Innovative Features of Learning for Development” Analytical Journal of Education and Development ISSN: 2181-2624  
[www.sciencebox.uz](http://www.sciencebox.uz) Muxamedov To'lqinjon Djurayevich
- 16.** Bolalar musiqa maktablarining boshlang'ich sinflarida skripka shtrixlarini o'rGANIshI Educational Research in Universal Sciences ISSN: 2181-3515 VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2023 273-277 betlar Muxamedov Feruz To'lqinjonovich,To'lqinjon Djurayevich Muxamedov